# SHARTNOMA

25«8»2022 yil. **163-11-168-OB/2022-son**

Obodonlashtirish Boshqarmasi bundan buyon matnda «Buyurtmachi» deb ataluvchi nomidan boshqarma boshlig'i I. NIYAZOV bir tomondan BAHBOOM MCHJ_
bundan buyon matnda «Pudratchi» deb ataluvchi nomidan rahbari Tojiboev F. ikkinchi tomondan ushbu pudrat shartnomasini quyidagilar xaqida tuzdilar.

I. SHARTNOMA MAZMUNI

1. «Pudratchi» ushbu shartnoma shartlariga muvofiq tegishli tartibda Marg'ilon sh. Turon MFY xududidagi piyodalar yo'lakchasini joriy ta'mirlash ishlarini smeta ekspertiza xujjatlariga asosan bajarib beradi. Buyurtmachi» bajarilgan ishlarni qabul qilib olib, «Pudratchi» ga shartnomada belgilangan summada haq to'laydi.

P. BAJARILADIGAN ISHNING BAXOSI.

2.1.Bajariladigan ishning bahosi 58850000 (Ellik sakkiz million sakkiz yuz ellik ming) sumni tashkil etadi.

III. XISOB-KITOB QILISH SHARTLARI.

3.1. «Buyurtmachi» bajariladigan ish uchun oldingan 30 foiz miqdorida avans to'lovini shartnoma imzolangan kundan so'ng 3(Uch) kun hamda to'liq xisob-kitobni shartnoma bo'yicha ish bajarilib, belgilangan tartibda qabul qilingan kundan boshlab 30 (O'ttiz) kun ichida amalga oshiradi.

3.2. Bajarilgan ishlar uchun xisob-kitob pul utkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

IV .PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI

4.1. «Pudratchi» ushbu shartnomaning 1-bandida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun quyidagi majburiyatlarini oladi:

o'zining va (yoki) jalb etilgan kuch yordamida ushbu shartnomada nazarda tutilgan ishni belgilangan hajm va muddatda, tasdiqlangan ish grafigiga asosan bajarish hamda «Buyurtmachi» ga topshirish;

yordamchi-pudratchilar bilan tuzilayotgan shartnomalar xaqida «Buyurtmachi»ni ogohlantirish;

ishni bajarish vaktida texnika xavfsizligi, atrof-muhitni, ekin va er uchastkalarini muhofaza bilan bogliq tadbirlarni amal oshirish;

qurilish tavakkalini sug'urta kilish;

ushbu shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarini to'lq xajmda bajarish;

4.2. «Pudratchi» ushbu shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga olgan ishni o'z kuchi va (yoki) jalb etilgan kuchlar yordamida sifatli bajarmaganligi, shuningdek, ishni belgilangan xajmda va o'z muddatida bajarmaganligi uchun «Buyurtmachi» oldida mulkiy javobgar xisoblanadi.

V. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI:

5.1.«Buyurtmachi» ushbu shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga quyidagi majburiyatlarini oladi:

belgilangan tartibga asosan ishni bajarish uchun «Pudratchi» ga 30 % mikdorida avans beradi va joriy moliyalashtirish ishlarini amalga oshiradi;

«Pudratchi» tomonidan ishni bajarish jarayoni, ishni bajarishda shartnoma shartlari va boshqa kelishuvlarga rioya qilinayotganligi ustidan nazorat olib boradi, tugallangan ishni qabul qlib olinishini ta'minlaydi;

10 kunlik muddat ichida «Pudratchi» ning murojaatlarini ko'rib chiqadi va rasmiylashtiradi; ushbu shartnoma imzolangan kundan boshlab 10 kunlik muddat ichida ishni qabul qilib olish uchun zarur bo'lgan ijro xujjatlari ro'yxatini «Pudratchi» ga taqdim etadi;

ushbu shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarini to'liq xajmda bajarish.

## VI ISHNI BAJARISH MUDDATI

6.1. Ushbu shartnomani ikkala tomon imzolagan paytdan boshlab va gaznachilik bo'limidan ro'yxatdan o'tgandan so'ng kuchga kiradi.

6.2. «Pudratchi» ushbu shartnoma ikkala tomon tarafidan imzolangan kundan boshlab uch kunlik muddat ichida tasdiqlangan ish grafigiga asosan ishni bajarishga kirishadi.

6.3. Ishni topshirish muddati 31.08.2022 y

6.4. Ushbu shartnoma bo'yicha ish belgilangan tartibda tasdiqlangan ish grafigiga asosan bajariladi.

## VII. ISHNI BAJARISH.

7.1. «Pudratchi» ushbu shartnoma bo'yicha ishni bajarishni tashkil etishni loyixa-smeta xujjatlari, ishni bajarish grafigiga muvofiq mustaqil belgilaydi.

7.2. «Pudratchi» ishni bajarish tartibini davlat arxitektura nazorati organlari bilan kelishadi hamda ushbu tartibga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlaydi

7.3. Bajarilayotgan ishlarning haafsizligi uchun «Pudratchi» javobgar bo'ladi.

7.4. Ishni bajarish muddatiga kommunikatsiyalarga vaktincha ulanish va buning uchun xisob-kitob qilish «Pudratchi» tomonidan amalga oshiriladi.

7.5.«Pudratchi» ishni bajarish uchun o'zi tomonidan ishlatayotgan materiallarning tegishli tartibda sifatliligi uchun javobgar hisoblanadi.

7.6. Ishning sifati lozim darajada bo'lmaganligi uchun «Pudratchi» O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan «Buyurtmachi» oldida javobgar hisoblanadi.

## VIII. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI.

8.1. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha zimmalariga olgan majburiyatlarini bajarmagan liklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun O'zbekiston Respublikasi Fukarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning shartnomaviy xuquqiy bazasi to'grisida" gi qonuni va boshqa qonun xujjatlarida belgilangan doirada javobgar hisoblanadilar.

## IX. FORS-MAJOR XOLATLAR.

9.1. SHartnoma tuzilgandan so'ng tabiiy ofatlar (er qimirlashi, suv toshqini, yong'in, epidemiya), urush, xukumatning normativ - xuquqiy hujjati, tomonlarning xohishidan qa'tiy nazar bajara olmaydigan holatlar vujudga kelgan taqdirda shartnomaning vazifalari bajarilmasa ikki taraf ham javobgar bo'lmaydi. Agar ushbu xolat 3 oy davomida bartaraf etilmasa va tugashi aniqlanmasa taraflardan birining tashabbusi bilan 10 kun oldin yozma xabar yuborish yo'li bilan shartnomani bekor qilishlari mumkin.

## X. TOMONLARNING KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA MAJBURIYATLARI

10.1. SHartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha qoidalarga, shu jumladan amaldagi qonunlarga rioya etilishini ta'minlaydi; ya'ni tomonlar bir-biriga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki berishda vositachilik qilish, moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu xarakatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilishini kafolatlaydi.

10.2. Tomonlar korrupsiyaga qarshi qoidalar buzilganda yoki asosli gumonlar yuzaga kelganda darxol yozma ravishda (elektron pochta orqali) yoki ishonch telefoni orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi. Bunda tomonlar yuzaga kelgan xolatga oydinlik kiritish maqsadida yozma izoh talab qilish xuquqiga ega va murojaatni olgan tomon 10 (o'n) ish kuni mobaynida tushuntirish berish yoki o'z fikrini bildirishi mumkin.

10.3. Davlat xaridlari sohasida korrupsiyaning oldini olish borasida:

davlat xaridlarini amalga oshirish tartib-taomillari to'g'risidagi axborotning shaffofligi va ochiqligini ta'minlash;

adolatli raqobatni va qarorlar qabul qilish chog'ida xolisona mezonlardan foydalanilishini ta'minlash;

ichki nazoratning samarali tizimini, shuningdek davlat xaridlarini o'tkazish natijalari yuzasidan shikoyat qilish va nizolashishning samarali tartib-taomilini yaratish;

davlat elektron savdolarining samaral iishlashin ita'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

10.4. Mazkur shartnoma tomonlari qonunchilikka rioya etishi, o'z mansab va xizmat majburiyatlarini beg'arazlik bilan, xolisona, vijdonan, odob-axloq qoidalariga rioya etgan holda bajarishi hamda korrupsiyaga oid biror-bir huquqbuzarlikni sodir etishdan va bunday huquqbuzarliklarni sodir etish uchun shart-sharoitlar yaratadigan boshqa har qanday harakatlardan o'zlarini tiyishlari shart.

10.5. Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korrupsion xavf-xatar bartaraf etilmasa, tomonlar amalga oshirgan choralar korrupsion xolatni pasayishiga olib kelmasa, boshqa tomon shartnomani bekor qilish xuquqiga ega yoki uning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkin.

XI. SHARTNOMA MUDDATI.

11.1. SHartnomaning amal qilish muddati «31» dekabr 2022 yilgacha.

XII. QO'SHIMCHA SHARTLAR.

12.1. SHartnoma yuzasidan kelib chiqqan nizolar o'zaro xal qilinadi. Agar o'zaro xal qilinmagan taqdirda O'zbekiston Respublikasi qonunlariga asosan Iqtisodiy sudlari orqali hal qilinadi.

12.2. SHartnoma ikki nusxada tuzilib, xar bir nusxasi teng yuridik kuchga ega bo'lib tomonlarda bir nushadan saqlanadi.

12.3. SHartnomaga barcha o'zgartirishlar ikkala tomonlama kelishilgan va shartnomaga qo'shimcha bitim imzolanib huquqshunos tomonidan tasdiqlangandan so'ng qonuniy deb hisoblanadi.

**XIII. TOMONLAR XUQUQIY MANZILI VA BANK REKVIZITLARI.**

| «PUDRATCHI» | «BUYURTMACHI» |
|---|---|
| **BAHBOOM MCHJ** | **Obodonlashtirish boshqarmasi** |
| **Adres Farg'ona** | **Adres Mustaqillik 452A** |
| **Tel/faks 97 8160888** | **x/r:302021860304127065100110004** |
| **X/R 20208000105396391001** | **INN 200138992** |
| **INN 308279438** | **Moliya vazirligi G'aznachiligi** |
| **MFO 00539** | **X/R23402000300100001010** |
| **Farg'ona sh. Asaka DAT bank Farg'. Vil. fil.** | **Markaziy bank Toshkent sh. bosh boshqarmasi XKKM** |
| **rahbar: ________ Tojiboev F.** | **MFO: 00014 STIR: 201122919** |
| | **rahbar: ________ I. Niyazov** |

Hujjat **elektron raqamli imzo** orqali imzolangan.
Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun **QR**

| | | |
|---|---|---|
| | **Code** ni skanerlang. | |
| | Imzolovchi F.I.SH. | ILXOM NIYAZOV FAZILOVICH |
| | Imzolangan sana | 25 авг 2022 08:20 |
| | Hujjat kodi | **HT8147410303** |
| | Hulosa kodi | **PJ4154300238** |

IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, ҳужжат коди: PJ4154300238

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN NORMALARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA

**HUQUQIY XULOSA**

2022-yil 23-avgust Marg'ilon shahri

**1. Loyihaning raqami:** HT8147410303

**2. Loyihaning turi:** Shartnoma

**3. Loyihaning nomi:** **"BAHBOOM"** MChJ bilan **58850000 (Ellik sakkiz million sakkiz yuz ellik ming)** so'mlik pudrat shartnomasi

**4. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqida ma'lumot:** Marg'ilon shahar Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan ishlab chiqilib, 2022-yil 23-avgust kuni dasturga kiritilgan.

**5. Loyiha yuzasidan huquqiy xulosa:**

Loyiha qonunchilikka muvofiq, Fuqarolik kodeksi hamda "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunga va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan, loyihadan foydalanish mumkin.

**Markaz bosh yuriskonsulti:** **Q.Giyasov**

**ТАСДИҚЛАЙМАН**
Маргилон шахар Ободонлаштириш
бошкармаси бошлиги
_________И. Ниязов

"25" июл 2022 йил Маргилон ш.

Маргилон шахар Ободонлаштириш бошкармаси томонидан "22" 08.2022 йил кунги лот № **22110012135619** билан **ТУРОН МФЙ худудидаги пиёдалар йулакчасини жорий таъмирла ишлари** бўйича давлат харидлари порталига қўйилган эълон якуни бўйича йиғилиш

**Б А Ё Н И № 13**

| | | |
|---|---|---|
| **Қатнашдилар:** | И. Ниязов | -Бошлик |
| | Л. Комилов | -Бош мухандис |
| | З. Каримова | -Бош хисобчи |
| | Х. Батиралиева | -Иктисодчи |
| | Х.Аминов | -Мухандис техник ходим |
| | М.Хайдарова | -Ашёлар хисобчиси |

**Энг яхши таклифни танлаш учун келиб тушган таклифлар:**

1. **ЧП "MARVARID MEBELLAR MAJMUASI"**
2. **«BAHBOOM» MCHJ**

Йиғилишда, иштирокчилар томонидан келиб тушган таклифлар бахолангандан сўнг 2 иш куни мобайнида мухокамада бўлган. Ушбу муддат ичида иштирокчи корхоналар томонидан хеч кандай эътирозлар келиб тушмади. Юқоридагиларни инобатга олиб комиссия

**ҚАРОР ҚИЛАДИ:**

1. Ўтказилган энг яхши таклифни танлашда энг юқори балл тўплаган ғолиб иштирокчи **«BAHBOOM» MCHJ** билан шартнома имзолансин ҳамда энг яхши таклифни танлаш натижалари ҳақидаги маълумотлар (йиғилиш баёни ва шартнома нусхаси) тегишли тартибда Давлат харидларини ўтказиш махсус ахборот порталига жойлаштирилсин. Ушбу қарорни бажарилишини назорат қилиш комиссия раиси зиммасида қолдирилсин.

| | |
|---|---|
| **Комиссия аъзолари** | З. Каримова |
| | Х. Батиралиева |
| | Х. Аминов |
| | М. Хайдарова |
| **Йиғилиш котиби:** | Л. Комилов |